

O'zbekiston

Bu dunyoda manglayi oq bir yurt bor,
Betakrordan betakrorroq bir yurt bor,
Qo'lni ber deb, dunyolarga qo'l cho'zgan,
Boshi baland, niyati pok bir yurt bor.
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Bu dunyoda tonglar otar osuda,
Beshigida go'dak yotar osuda.
Bu o'lkaning jamoliga to'ymasdan,
Shafaqlanib oftob botar osuda.
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Minglab aziz-avliyosi bor uning,
Olam aro o'z bahosi bor uning,
Yorqin-yorqin manzillarni ko'zlagan,
O'z sohibi, rahnamosi bor uning.
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Unga qarab kim do'q urdi behuda,
To'rt tarafga zir yugurdi behuda,
Sir, Amuni ters oqiza olmasdan,
Motamsaro o'ylar surdi behuda.
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Ming yillarki yashab kelar u halol,
Ming yillarki kelmas hech kimga malol,
Teran tomir, eli mohir bu diyor,
Yana bo'lgay barkamoldan barkamol.
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Temuriymiz, Buxoriymiz asli biz,
Aslimizga qarab ketar naslimiz.
Egam o'zi sayqal bergan zamin bu,
Bahoriydir, bahoriy to'rt faslimiz!
Bu diyorni O'zbekiston deydilar,
Olam aro chamaniston deydilar.

Ohunjon Hakimov
O'zbekiston xalq shoiri.
O'zbekiston adabiyoti va san'ati
gazetasidan